


XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2019 yil yanvar-fevral)

2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 56258,4 ming. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 159,2% ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 18949,9 ming. AQSH dollarga (121,5%ga ko'paygan) va import hajmi 37308,5 ming. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 188,9%) etdi. Tashqi savdo saldosi minus 18361,3 ming. AQSH dollarini tashkil qildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(ming. AQSH dollari)



2019 yil yanvar-fevral oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar-fevral oylaridan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.


Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar
(ming. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Xitoy	14426,3	490,8	13935,5	25,6	126,2
Rossiya	11079,9	4630,6	6449,3	19,7	99,6
Qirg'iziston	4602,7	4602,7	0,0	8,2	2,8 m
Turkiya	4162,5	1152,2	3010,3	7,4	126,3
Qozog'iston	3290,0	1672,5	1617,5	5,8	91,6
Eron	2704,0	1702,3	1001,7	4,8	2,5 m


Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 42,0%ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 147,7%ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019 yilning yanvar-fevral oylarida 58,0%ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 168,6%ga etdi.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi
(ming.AQSH dollari)

**2018 YIL
YANVAR-FEVRAL**



**2019 YIL
YANVAR-FEVRAL**




Paxta tolasi	Qora va rangli metallar
Oziq-ovqat mahsulotlari	Mashina vaasbob-uskunalar
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	Xizmatlar
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	Boshqalar

Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	18949,9	121,5	100,0	14323,1	157,3	100,0	4626,9	71,2	100,0
Paxta tolasi	80,3	2,7	0,4	80,3	3,2 m	0,6	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	10041,2	4,2 m	53,1	8095,2	3,7 m	56,5	1945,9	10,9	42,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	139,4	119,6	0,7	76,4	7,5 m	0,5	63,0	59,2	1,4
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	243,8	13,5 m	1,3	243,8	13,5 m	1,7	-	-	-
Qora va rangli metallar	1,2	-	-	1,2	-	-	-	-	-
Mashina va asbob - uskunalar	5,6	-	-	5,6	-	-	-	-	-
Xizmatlar	2273,3	2,1 m	12,0	2200,9	2,1 m	15,4	72,4	2,4 m	1,6
Boshqalar	6165,2	68,2	32,5	3619,7	61,9	25,3	2545,5	79,6	55,0


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkin, joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,5%ga ko'paygan.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, ming. AQSH dollari)



Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming.AQSH dollari)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	37308,5	188,9	100,0	9279,8	134,9	100,0	28028,7	2,1 m	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	2325,1	183,2	6,2	2001,5	3,0 m	21,6	323,6	53,0	1,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1571,8	44,8	4,2	549,8	61,3	5,9	1022,0	39,2	3,6

Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	2,5	12,4	-	-	-	-	2,5	38,5	0,1
Qora va rangli metallar	1128,8	96,8	3,0	363,3	39,1	3,9	765,5	3,2 m	2,7
Mashina va asbob-uskunalar	19417,9	2,1 m	52,1	712,4	2,3 m	7,7	18705,5	2,1 m	66,7
Boshqalar	12862,4	2,6 m	34,5	5652,9	138,6	60,9	7209,6	9,4 m	25,7


Import qilingan tovar va xizmatlarning o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkin, joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,9 %ga ko'paygan.

Viloyat tovar va xizmatlar importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi



2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatga 33 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Koreya, Latviya va Yaponiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 27956,2 ming. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 74,9 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:62-224-65-09**